

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



DIQLAYMAN"

S.M. Tugaberganov

"27" 06

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil "25" 06

Ro'yxatga olindi:

№ BD - 5310200 - 1.06

2018 yil "18" 01

KIMYO (UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO, FIZIK VA KOLLOID  
KIMYO, ANALITIK KIMYO)

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 300 000 – Ishlab chiqarish texnik soha;  
Ta'lim sohasi: 320 000 – Ishlab chiqarish texnologiyalari;  
Ta'lim yo'nalishi 532 1400 – Neft-gaz kimyo sanoati texnologiyasi.

Toshkent – 2018

U'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "25" 08 dagi "249" - sonli buyrug'ining 6 ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-xunar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil "18" 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

Ixtiyorova G.A. -ToshDTU "Umumiy kimyo" kafedrasini mudiri, k.f.d., professor;  
Eshmuhammedov M.A. -ToshDTU "Umumiy kimyo" kafedrasini dotsenti, k.f.n.;  
Ismoilov R.I. -ToshDTU "Umumiy kimyo" kafedrasini professori, k.f.d.;

#### Taqrizchilar:

Akbarov X.I. -O'zMU "Fizik va kolloid kimyo" kafedrasini mudiri, k.f.d.,  
prof.  
Muxitdinov X.X. -ToshDTU "Umumiy kimyo" kafedrasini dotsenti, t.f.n.

Fan dasturi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "27" 06 dagi 9-sonli bayonnomasi).

#### I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Ta’lim to’g’risi” dagi qonunda, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da va O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida ilm-fanni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Xalq xo‘jaligining hamma sohalar uchun zamon talablariga javob beradigan kimyogarlarni tayyorlash kimyo fanining dolzarb masalalaridan biridir. Ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan bakalavriaturani bitirgan mutaxassislar o‘z sohalarida turli materiallarni qo‘llashlari uchun ularni fizik -kimyoviy xossalarini bilishlari shart. Bunday xususiyatlarni kimyo fani o‘rgatadi, shuning uchun ham bu fan dolzarbdir.

“Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)” fani aniq fanlar; matematika, fizika, materialshunoslik, payvandlash materiallari, polimerlar, polimer kompozitsion materiallar va boshqa qator fanlar bilan mantiqiy bog‘liqdir.

Mavjud bo‘lgan kimyoviy texnologiyalar kimyo fanining sanoat fani ekanligini to‘liq isbotlaydi, chunki kimyoviy reaksiya sharoitlarini bilmasdan texnologik jarayonlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Kimyoviy jarayonlar turli sharoitlarda jumladan yuqori bosimda, vakuumda, yuqori yoki past haroratda olib boriladi. “Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)” fani organik sintez, keramik mahsulotlar, sintetik polimerlar, kimyoviy o‘g‘itlar, sintetik yuvish vositalari, metallurgiya, neft va gazni qayta ishlash, oziq-ovqat, yengil va to‘qimachilik sanoatlarini o‘z ichiga oladi. Sanoatda kimyoviy jarayonlar turli sharoitlarda: yuqori bosim ostida, vakkumda, yuqori yoki past haroratda, turli muhitlarda olib boriladi. Bunday sharoitda reaksiyani olib borish uchun mutaxassis ishlatilayotgan modda materiallari xoslarini, ularning samaradorligini bilishi talab etiladi. Talabalarining “Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keys-texnologiyalaridan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlari va laboratoriya ishlarida o‘qitishning interaktiv usullari (vizual, muammoli, mualliflik ma’ruzalari, ikki tomonlama tahlil, Insert, klaster, “Venna”, Sinkveyn va boshqalar)dan foydalaniladi. Fan o‘qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyillari asosida “Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)” fani o‘quv mashg‘ulotlarining loyihalari ishlab chiqiladi.

## II. O‘quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o‘rganishdan maqsad: kimyo fanida mavjud bo‘lgan tushuncha nazariya va qonunlarni o‘rganib, uning mohiyatiga etish;

- moddalarning tuzilishi, tarkibi, xossalarini hamda ularning bir turdan boshqa turga o‘tish sabablari va oqibatlarini bilish;

- kimyoviy hisoblashlarni bajara olish haqida.

Fanning vazifasi - uni o‘rganuvchilarga:

- kimyoviy Laboratoriyalarni rejalashtirish, ularni amalga oshira bilish va bajarish uchun kerakli moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha etarli darajada bilim va ko'nikmalar orttirish;
- kimyoviy axborot yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash Laboratoriya va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida talab darajasida foydalana olishdan iborat.

#### **Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga talablar**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- fani o'rganishdan maqsad – kimyo fanida mavjud bo'lgan tushuncha nazariya va qonunlarni o'rganib, uning mohiyatiga etish;
- moddalarning tuzilishi, tarkibi, xossalari hamda ularning bir turdan boshqa turga o'tish sabablari va oqibatlarini bilish;
- kimyoviy hisoblashlarni bajara olish;
- kimyoviy Laboratoriyalarni rejalashtirish, ularni amalga oshira bilish va bajarish uchun kerakli moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha etarli darajada bilim va ko'nikmalar orttirish;
- kimyoviy axborot yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash Laboratoriya va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida talab darajasida foydalana olishdan iborat.

Qo'yilgan vazifalarga o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, ijodiy yondoshishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi bilan amalga oshadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba, darslik, o'quv qo'llanma, internet materiallari va meyoriy xujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlar paytida qabul qilingan informatsiyasini to'g'ri mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

**“Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)”** fanini olib borilishi va talabalarning o'zlashtirishiga oid talablar.

#### **Talaba bilishi kerak bo'lgan xolalar:**

Ushbu fan dasturini tashkil qiluvchi materiallarni o'zlashtirish uchun ma'ruza darslarida olingan bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda masalalar echish va Laboratoriya darslarida Laboratoriya ishlarini bajarish bilan mustahkamlash.

Talaba **“Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)”** kursini o'rganishda e'tiborni asosiy materialdan tashqari ma'lumotlarga qaratishi kerak emas. U kurs materiallarini reja asosida ketma-ket o'rganishi kerak va ana shundagina talaba aniq bir sinf birikmalarining boshqasi bilan o'zaro aloqadorliklari aniq bo'ladi hamda funksional guruhlar va birikmalarining reaksiyon xususiyatlaridagi o'zaro bog'liqlar aniq bo'ladi.

- kimyoviy termin, atamalar va tushunchalarni to'g'ri ishlata bilishi;
- elementlar davriy qonuni va davriy sistemasi;

- kimyoviy Laboratoriyalarni rejalashtirish, ularni amalga oshira bilish va bajarish uchun kerakli moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha etarli darajada bilim va ko'nikmalar orttirish;
- kimyoviy axborot yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash Laboratoriya va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida talab darajasida foydalana olishdan iborat.

### **Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga talablar**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. *Talaba:*

- fani o'rganishdan maqsad – kimyo fanida mavjud bo'lgan tushuncha nazariya va qonunlarni o'rganib, uning mohiyatiga etish;
- moddalarning tuzilishi, tarkibi, xossalarni hamda ularning bir turdan boshqa turga o'tish sabablari va oqibatlarini bilish;
- kimyoviy hisoblashlarni bajara olish;
- kimyoviy Laboratoriyalarni rejalashtirish, ularni amalga oshira bilish va bajarish uchun kerakli moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha etarli darajada bilim va ko'nikmalar orttirish;
- kimyoviy axborot yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash Laboratoriya va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida talab darajasida foydalana olishdan iborat.

Qo'yilgan vazifalarga o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, ijodiy yondoshishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi bilan amalga oshadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba, darslik, o'quv qo'llanma, internet materiallari va meyoriy xujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlar paytida qabul qilingan informatsiyasini to'g'ri mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

**“Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)”** fanini olib borilishi va talabalarning o'zlashtirishiga oid talablar.

***Talaba bilishi kerak bo'lgan xolatlar:***

Ushbu fan dasturini tashkil qiluvchi materiallarni o'zlashtirish uchun ma'ruza darslarida olingan bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda masalalar echish va Laboratoriya darslarida Laboratoriya ishlarini bajarish bilan mustahkamlash.

Talaba **“Kimyo (umumiy va noorganik kimyo, fizik va kolloid kimyo, analitik kimyo)”** kursini o'rganishda e'tiborni asosiy materialdan tashqari ma'lumotlarga qaratishi kerak emas. U kurs materiallarini reja asosida ketma-ket o'rganishi kerak va ana shundagina talaba aniq bir sinf birikmalarning boshqasi bilan o'zaro aloqadorliklari aniq bo'ladi hamda funktsional guruhlar va birikmalarning reaksiyon xususiyatlaridagi o'zaro bog'liqlar aniq bo'ladi.

- kimyoviy termin, atamalar va tushunchalarni to'g'ri ishlata bilishi;
- elementlar davriy qonuni va davriy sistemasi;

- atom tuzilishi, molekula tuzilishi, kimyoviy bog'lanish;
  - elektrolit eritmalar, ularni xossalari va o'rin almashinish reaksiyalari, tuzlarini gidrolizi;
  - oksidlanish qaytarilish reaksiyalari kinetikasi va termodinamikasi, ularni yo'nalishi;
  - kimyoviy termodinamika qonunlarining ahamiyati;
  - kimyoviy va fazaviy muvozanat qonunlari;
  - eritmada erigan noelektrolit va elektrolit moddalarning molekulyar massalarini aniqlashni, geterogen jarayonlarda fazalarning tarkibini aniqlashni va jarayonlarni boshqara olishini;
    - kuchsiz elektrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini aniqlab, ularni dissosiasiyalanish darajasi va konstantasini hisoblashni;
    - kimyoviy jarayonlarning tezligini, unga ta'sir etuvchi omillarni va reaksiya mexanizmini aniqlashda kimyoviy kinetika qonunlarini tadbiq qilish;
    - eritmalar, konsentrasiyalarni ifodalash, eritmalaridagi muvozanat, kimyoviy reaksiyalar tezligini hisoblash;
    - har xil tahlil usullarini qo'llash orqali eritma holdagi moddaning konsentrasiyasini aniqlash;
    - fizik-kimyoviy o'lchashlar va unga tegishli amallardan foydalana olish;
    - qattiq-suyuq va suyuq-gaz chegara sirtlarida solishtirma adsorbsiyani qiymatini aniqlash;
    - gidrofob kolloid dispers sistemalarni tayyorlash va barqarorlash, kolloid zarrachalarni zaryad ishorasini aniqlash, kolloid dispers sistemalarni koagulyatsiyalash va koagulyatsiya chegarasini aniqlash;
    - YuMBIarni bo'kish kinetikasini va darajasi qiymatini aniqlash, o'rtacha molekulyar massasini aniqlay olish;
    - olgan nazariy bilimlarini texnologik jarayonlarga qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi;
  - qaytar kimyoviy reaksiyalarning unumini oshirish yo'llarini;
  - eritmada erigan noelektrolit va elektrolit moddalarning molekulyar massalarini aniqlashni, geterogen jarayonlarda fazalarning tarkibini aniqlashni va jarayonlarni boshqara olishini
  - titrometrik tahlil o'tkazish, potensiommetrik tahlil usulini qo'llash;
  - moddalarni tahlil qilish, sifat va miqdor tahlili orqali ularning tuzilishini aniqlash, kislota-asosli, oksidlab-qaytarib, cho'ktirib va kompleksometrik titrlash;
  - kuchsiz elektrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini aniqlab, ularni dissosiasiyalanish darajasi va konstantasini hisoblashni;
  - fanni o'zlashtirishdan olingan bilimlarni sanoat texnologiyalarida qo'llay olish;
  - fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari va ma'lumot-nomalardan foydalana olish;
  - qaytar kimyoviy reaksiyalarning muvozanat konstantasini aniqlash;
  - kuchsiz elektrolitlarni elektr o'tkazuvchanligini aniqlash;
- Qo'yilgan vazifalar o'qish davomida talabalarining ma'ruza amaliy va Laboratoriya mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi hamda o'qituvchi kuzatuvda mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshiriladi.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### 1-Modul. Umumiy va noorganik kimyo

**1-Mavzu "Umumiy va noorganik kimyo" fanining rivojlanish tarixi.** Fanning maqsadi va vazifalari. Materiya. Modda. Atom molekulyar ta'limot va kimyoviy element.Element. Oddiy va murakkab moddalar. Allotropiya. Fizik va kimyoviy hodisalar. Kimyo faniga hissa qo'shgan olimlar. Kimyo fanining ahamiyati.

**2-Mavzu Kimyoning asosiy qonunlari.** Dalton atomistikasi. Modda massasining saqlanish qonuni, modda tarkibining doimiylik qonuni. Avogadro qonuni. Ekvivalentlar qonuni. Gey – Lyussakning hajmiy nisbatlar qonuni. Elementlar atom massalari va uni aniqlash. Gazsimon moddalarning molekulyar massalarini aniqlash.

**3-Mavzu Anorganik birikmalarning eng muhim sinflari.** Oksidlar. Nomlanishi, olinishi, xossalari va ishlatilishi. Asoslar, ularning turlari, olinishi, xossalari va ishlatilishi. Kislotalar, Tuzlar. Orta, nordon, asosli, qo'sh va kompleks tuzlar.

**4-Mavzu Atom tuzilishi, uning yadrovii modeli.** Yadrovii reaksiyalar. Bor postulatlar. Atom yadrosining tarkibi, izotoplar. Radioaktivlik. Radioaktiv izotoplardan foydalanish. Sun'iy radioaktivlik. Yadro energetikasi. Toriy, uran, plutoniy va boshqa radioaktiv elementlar kimyosi. Kvant sonlari, atom tuzilishini kvant mexanik modeli, atom orbitalar. Pauli printsiipi. Hund qoidasi. Atom orbitalarni elektronlar bilan to'lish tartibi. Klechkovskiy qoidalari. Ko'p elektronli atomlarni tuzilishi.

**5-Mavzu Kimyoviy elementlar davriy sistemasi.** Davriy sistemaning tuzilishi. Kimyoviy elementlar va ular birikmalarining xossalarini o'zgarishi, elementlarni oksidlovchi-qaytaruvchilik xossasi. Elementlar davriy sistemasini ahamiyati.

**6-Mavzu Kimyoviy bog'lanish va molekulaning tuzilishi.** Kimyoviy bog'lanishni asosiy turlari va xossalari. Valent bog'lanish usuli. Kovalent va ion bog'lanish. Molekulyar orbitalar usuli haqida tushuncha. Oddiy molekulalarni tuzilishi va xossalari. Moddalarning agregat holatlari. qattiq moddani kimyoviy tuzilishi. Moddalarni amorf va kristall holati. Kristallar. Kristall panjaralarni tuzilishi. Qattiq moddalarda kimyoviy bog'lanish.

**7-Mavzu Moddani ichki energiyasi.** Entalpiya, entropiya. Termokimyo. Gibbsning entropiya va energiyasi. Gess qonuni. Kimyoviy birikmalarni hosil bo'lish entalpiyasi. Entropiya va uni kimyoviy jarayonlarda o'zgarishi. Kimyoviy reaksiyani borish sharoitlari.

**8-Mavzu Kimyoviy kinetika.** Kimyoviy reaksiya tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Reaksiya tezlik konstantasi. Massalar ta'siri qonuni. Vant Goff qoidasi. Gomogen kataliz. Zanjirli reaksiyalar. Geterogen sistemalarda kimyoviy reaksiya tezligi. Geterogen kataliz. Kimyoviy muvozanat. Kimyoviy reaksiyalarni issiqlik effekti. Muvozanat sharoitlari. Muvozanat konstantasi va uni termodinamik funktsiyalar bilan bog'liqligi. Le-Shatele prinsipi.

**9-Mavzu Eritmalar, ularni turlari.** Eritmaning konsentratsiyasi. Moddalar eruvchanligi.

**10-Mavzu Suyultirilgan eritmalarining xossasi.** Osmotik bosim. Vang-Goff qonuni. Raul qonunlari. Eritmalarni muzlash va qaynash temperaturalari.

**11-Mavzu Elektrolit eritmalar.** Dissotsiatsiya darajasi va konstantasi. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi. Kislota, asos va tuzlarning dissotsiatsiyasi

**12-Mavzu Ionli reaksiyalar.** Suvni dissotsiatsiyasi. pH -vodorod ko'rsatkich. Tuzlarning gidrolizi.

**13-Mavzu Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ularning turlari.** Eng muhim oksidlovchi va qaytaruvchilar. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tenglamalarini tuzish. Elektron balans va ionli usullar.

**14-Mavzu Metallar.** Ularning tabiatda uchrashi va olinish usullari. Fizik va kimyoviy xossalari. Metallarni aktivlik qatori va ularning qo'llanishi.

**15-Mavzu Elektrokimyo.** Galvanik element nazariyasi.

**16-Mavzu Vodorod va metallarni standartelektrod potentsiali.** Kuchlanishlar qatori. Elektr yurituvchi kuch EYUKni hisoblash. Nerst tenglamasi.

**17-Mavzu Elektroliz.** Katod va anodda boradigan jarayonlar. Tuzlarning suyuqlanma va eritmalarining elektrolizi.

**18-Mavzu Elektroliz qonunlari.** Akkumulyatorlar. Metallar korroziyasi, korroziya turlari va ularni himoyalash usullari.

**19-Mavzu I<sup>A</sup> guruh elementlari.** Ishqoriy metallar. Elementlarning umumiy tavsifi. Tabiatda uchrashi. Olinishi va ishlatilishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Gidridlar oksidlar, peroksidlar, gidroksidlar (ishqorlar). Xossalari olinishi usullari. Tuzlar, ularni xossalari. Natriy va kaliy ionlarini fiziologik xususiyati.

**20-Mavzu II<sup>A</sup> guruh elementlari.** Berilliy, magniy, ishkoriy yer metallari. Elementlarni umumiy tavsifi. Tabiatda uchrashi, olinishi va qo'llanishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Gidridlar, oksidlar, peroksidlar, gidroksidlar ularni olinishi va xossalari. Guruxcha elementlari tuzlarning umumiy tavsifi, ularni eruvchanligi va gidrolizlanishi. Galidlar ular karbonatlarini termik parchalanishi. Magniy, kalsiy ionlarini, fiziologik xususiyati. Suv. Suvning tuzilishi. Olinishi, fizik kimyoviy xossalari, ishlatilishi. Suvning qattiqligi. Suvning vaqtinchalik, muvaqqat va doimiy qattiqligi. Suvning qattiqligini miqdoriy tavsifi, suv qattiqligini yo'qotish usullari (kimyoviy, fizikaviy, ionalmashunuvchi).

**21-Mavzu III<sup>A</sup> guruh elementlari.** Bor. Uning uchrashi va umumiy tavsifi, olinishi, qo'llanishi. Borning gidridlari, ularni olinishi va xossalari, hamda gidridlardagi kimyoviy bog'lanish. Bor metalli birikmalari, ularni olinishi va xossasi. Bor karbidi. Barazon, barazol Galidlar. Tetraftor borat kislota, uni olinishi va xossasi. Bor mikroelement. Bor oksidi va bor kislotalari. Alyuminiy. Tabiatda uchrashi, olinishi, umumiy tavsifi, qo'llanishi, fizik va kimyoviy xossalari. Alyuminotermya, karbid, oksid va gidroksidlar ularni xossalari hamda ishlatilishi. Alyuminiy tuzlarining umumiy tavsifi, ularni eruvchanligi va gidrolizlanishi.

**22-Mavzu IV<sup>A</sup> guruh elementlari.** Uglarod, umumiy tavsifi, allotrop modifikatsiyasi. Grafit, olmos va karbinlarni tuzilishi va xossasi. Qurum va uni adsorbsion xossasi. Metall karbidlar, xossalarini kimyoviy bog'lanish xususiyatiga bog'liqligi. Uglarodni kislorodli birikmalari. Uglarod (IV)oksid, uning molekulasini tuzilishi, xossalari, olinishi, uni shakar va alkogolsiz ichimliklar sanoatida ishlatilishi. Karbonat kislota va uning tuzlari. Karbonat ( $\text{CO}_3^{2-}$ ) ionni tuzilishi. Uglarod (2)oksid(CO), uni olinishi, xossasi, undagi kimyoviy bog'lanish. Azot va uglarod (II) oksidlarni fizik xossalari o'xshashligini tushuntirish. Uglarod (II) oksid qaytaruvchi



sifatda. Metall karbonillari. Uglorodni gologenli birikmalari tuzilishi, xossasi va ulardagi kimyoviy bog'lanish, freonlar ularni xossalari va qo'llanishi. Uglorodli azotli birikmalari Ditsian Sianid kislota va uning tuzlari.

**23-Mavzu V<sup>A</sup> guruh elementlari.** Azot. Umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi, fizik-kimyoviy xossasi. Azotni oksidlanish darajasi azot molekulasida kimyoviy bog'lanish, azotni kimyoviy inertlik sabablari. Maxsulotlarni saqlashda azotni qo'llanishi. Azotni vodorodli birikmalari. Ammiak uni sanoatda va laboratoriyada olinish usullari. Suyuq ammiak suvsiz ionlovchi erituvchi sifatida. Ammiakni fizik- kimyoviy xossasi suyuq ammiakni sovutgichlarda ishlatilishi. Ammiak molekulasini o'rin olish, oksidlanish va birikish reaksiyaga kirishi. Ammoniy tuzlari, ularni termin va elektrolitik dissotsiyasi. Amidlar, imidlar metall nitridlari va ularni xossasi. Azidlar va vodorod azidlar. Azot oksidlari ularni tuzilishi va kimyoviy bog'lanishi hamda elementlar moddalardan olinishi. Nitrit kislota, uni oksidlovchi va qaytaruvchilik xossasi. Nitritlar, ularni olinishi va xossalari, nitrid kislota va uni olinishi, tuzilishi, oksidlovchilik xossasi, nitridkislota-dagi kimyoviy bog'lanish, nitrat kislotani metallarga va metallmaslarga ta'siri. Mahsulot sifatini tekshirishda nitrat kislotani ishlatilishi. Zar suvi, nitratlar, ularni olinishi, xossasi va termik parchalanishi. Azotli o'g'itlar.

Fosfor, umumiy tavsifi, allotropiyasi, metall fosfidlari. Fosfin, uni olinishi va xossasi fosforiy ionii, tuzilishi va undagi kimyoviy bog'lanish. Fosfor (III, V) oksidlari, ularni olinishi, tuzilishi, gidrolizlanishi, fosfor birikmalar asosidagi anorganik polimerlar.

**24-Mavzu Mineral o'g'itlar.** Organik o'g'itlar. O'g'itlarning sinflarga bo'linishi. Kaliyli, azotli o'g'itlar. Olinishi, ishlatilishi ahamiyati. Mikroo'g'itlar ishlab chiqarish. Ammonoy nitrat (selitra) ishlab chiqarish texnologiyasi. Karbamid(mochevina) olinish texnologiyasi.

**25-Mavzu Fosforli o'g'itlar.** Olinishi, ishlatilishi ahamiyati. Oddiy va qo'sh superfosfatlar olinish texnologiyasi. Fosfat kislota ishlab chiqarish. Chirchiq Maxsam ishlab chiqarish korxonasi. O'zbekistonda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalari. Ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish sanoatining homashyosi va uni boyitish usullari.

**26-Mavzu VI<sup>A</sup> guruh elementlari.** Xal'kogenlar. Kislород - umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi. Havo kislородni olinishi, xossasi va qo'llanishi kislород molekulasida kimyoviy bog'lanish, oksidlar, ularni klassifikatsiyasi, olinishi va xossasi. Ozon, uni olinishi, xossasi, qo'llanishi. Ozon molekulasida kimyoviy bog'lanish Ozon, oksidlovchi sifatida Ozonidlar. Suv. Suv molekulasini tuzilishi va undagi kimyoviy bog'lanish. Suvni fizik xossalari anomoliyasi. Suv erituvchi. Og'ir suv sanoatda oqava suvlarni tozalash haqida tushuncha. Peroksidlar. Vodorod peroksid, uni olinish usuli, xossasi, tuzilishi va qo'llanishi. Vodorod peroksidni oksidlovchi va qaytaruvchilik xossasi.

Oltinguurt - umumiy tavsifi, uchrashi, olinishi, fizik xossasi va allotropiyasi. Oltingugurtni kimyoviy xossasi, oksidlanish darajasi. Vodorod sul'fid, uni olinishi va xossasi. Sul'fidlar.

Selen, tellur, poloniy – ularning umumiy tavsifi, oksidlanish darajasi, vodorodli birikmalari va ularni xossalari. Ular xossalarini oltingugurtning vodorodli birikmalari xossalari bilan taqqoslash. Selenidlar va tellurlar, ularni yarim o'tkazuvchilik xossalari. Selen, tellur, poloniyni (IV) oksid va gidroksidlari.

**27-Mavzu VII<sup>A</sup> guruh elementlari.** Vodorod va galogenlar. Vodorod. Elementlar davriy sistemasida vodorodni o'ziga xos joylanishi, tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossasi Vodorod izotoplari. Vodorodni qaytaruvchanlik xossasi. Gidridlar, ularni umumiy tavsifi. Vodorodni qo'llanishi. Energiya manbai sifatida vodorodni ahamiyati. Vodorod glogenidlarni barkarorligi, qaytaruvchanlik xossasi va kislotali tavsifini o'zgarishi. Xlorid kislotani sanoatda ishlatilishi. Galogenlarni kislorodli birikmalari, ularni sintezi. Galogenlarni suv va ishqor eritmalar bilan ta'siri. Kislorod florid. Xlor, brom, iodlarni kislorodli kislotalari va ularni tuzlari hamda ularni kislotali va Oksidlovchilik xossasini taqqoslash. Uni kimyoviy oqartirishda xlor birikmasini ishlatilishi. VIII-<sup>A</sup> guruhcha elementlari. Geliy, neon, argon, krypton, ksenon radon - umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi. sanoatda ishlatilishi, tabiatda uchrashi, fizik-kimyoviy xossalari, qo'llanishi.

**28-Mavzu I<sup>B</sup> guruh elementlari.** Mis guruxchasi elementlari, ularning umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi, fizik va kimyoviy xossalari, qo'llanilishi. Ularning oksidlari va gidroksidlari, olinishi va xossalari.

**29-Mavzu II<sup>B</sup> guruh elementlari.** Rux gruppachasi elementlari. Ularning umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi va olinishi, fizik va kimyoviy xossalari, qo'llanilishi. Oksidlari va gidroksidlarini olish va xossalari.

**30-Mavzu III<sup>B</sup> va IV<sup>B</sup> guruh elementlari.** Skandiy guruh elementlari. Ularni umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi va ishlatilishi. Titan gurux elementlari, ularni umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi va ishlatilishi. Ular birikmalarini xossasi, Titan (IV) oksidi, uni olinishi, xossasi. Titanni galogenli birikmalari va ularni xossalari. Kompleks birikmalari. Uglorod va titan guruxchalari elementlari va ular birikmalari xossalari takkoshlash.

**31-Mavzu V<sup>B</sup> guruh elementlari.** Vanadiy guruxchasi elementlari, ularni umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi va kullanishi. Ularni kislorodli birikmalarini olinishi va xossalari. Ularning oksidlari va gidroksidlarini asos-kislota xossasi. Tuzlari. Kompleks birikmalari. Azot va vanadiy guruxchasi elementlari va ular birikmalari xossalari taqqoslash.

**32-Mavzu VI<sup>B</sup> guruh elementlari.** Xrom guruxchasi elementlari, ularni umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi va xossasi va qo'llanishi. Molibden mikroelement sifatida. Xrom (II) oksid, gidroksid va tuzlari. Xrom (II) oksid, gidroksid va tuzlari. Xromitlar, kvasslar engil sanoatda xrom (III) oksid va gidroksidlarini ishlatilishi. (IV) oksidi. Xrom ot kislota va uning tuzlari. Xrom (IV) Birikmalarini oksidlovchi xususiyati mahsulot sifatini aniqlashda kaliy bixromatni ishlatishi. Xrom peroksidi, peroksoxromatlar va ularni xossalari. Molibden (IV) va volfram (IV) oksid va gidroksidlari. Molibdatlar va volframatlari. Izopoli va geteropoli kislotalar va ularni fosforani aniqlashda ishlatilishi. Xrom va kislorod guruh elementlari va ular birikmalari xossalari taqqoslash.

**33-Mavzu VII<sup>B</sup> guruhcha elementlari.** Marganes guruh elementlari, ularni umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi va qo'llanishi. Marganes mikroelement.

Margenes (II) va Magenes (VI) larni oksid, gidroksid va tuzlari. Manganat va permanganat kislotalar. Marganes birikmalari oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarida eritma muhitini reaksiya natijasida hosil bo'ladigan mahsulotga ta'siri. Galogenlar va marganes guruhi elementlarini xossalarni taqqoslash.

**34-Mavzu VIII<sup>B</sup> guruh elementlari.** Temir oilasi metallari temir, kobalt, nikel, ularning umumiy tavsifi, tabiatda uchrashi, olinishi, cho'yan, po'lat, temir xossasi. Temir korroziviyasi va unga qarshi kurashish usullari, temir oksidlari temir (II) va temir (III) tuzlari, ularni xossalari. Temirni kompleks birikmalari uni termokimyoviy nazoratda qo'llanishi. Ferratlar temirni biokatalizatorlik xususiyati. Kobalt va nikelni xossasi. Kobalt mikroelement. Kobalt va nikelni (II) va (III). Oksid va gidroksidlari, ularni kompleks birikmalari temir, kobalt va nikel'ni hamda ular birikmalarini qo'llanishi.

**35-Mavzu Platina oilasi metallari, ularni umumiy tavsifi.** Tabiatda uchrashi, kimyoviy xossalari, oddiy va kompleks birikmalari. Platina oilasi metallarini katalizator sifatida ishlatilishi. Temir va platina oilalari metallarning xossalarni taqqoslash.

**36-Mavzu Kimyo va atrof muhit muhofazasi.** Texnik taraqqiyot va ekologik muammolar. Ekologik muammolarni hal qilishda kimyoning roli. Yoqilg'ilarni yonish mahsulotlari va havoning ifloslanishidan saqlash. Kam chiqindili texnologiyalar usullari. Vodorodni olish, qo'llash. Vodorod energetikasi. Oqava suvlarini xususiyatlari va ularni tozalash usullari.

### **37-Mavzu Mikrogeterogen sistemalar, ularning umumiy xarakteristikasi**

Mikrogeterogen dispers sistemalar: ko'piklar, suspenziyalar, aerozollar, emulsiyalar, kukunlar va ularning umumiy tavsifi. Emulsiya hosil qilishning umumiy tasnifi va barqarorligi. Emulgatorlar va ularning sinflanishi. Polimerli stabilizator va emulgatorlar. Gidrofil-Lipofil balans.

## **2- Modul. Analitik kimyo**

**38-Mavzu Analitik kimyo fanining vazifasi va mohiyati.** Analitik kimyo usullarining sinflanishi. Analitik kimyo fani. Analitik kimyoning rivojlanish tarixi. Analitik kimyoning asosi va analiz usullarining sinflanishi. Kimyoviy analizdagi eritmalarining nazariy asoslari. Massalar ta'siri qonuni, uning ahamiyati va ishlatilish sohalari. Analitik reaksiyalarni bajarish usullari. Kimyoviy analizda eritmalar nazariyasi. Massalar ta'siri qonuni. Qonunning ahamiyati va analizda qo'llanilishi. Analitik reaksiyalarning olib borish usullari. Makroanaliz, mikro- va yarimmikroanaliz usullari.

**39-Mavzu Analitik reaksiyalarni bajarish sharoitlari. Elektrolitik dissotsilanish.** Dissotsilanish darajasi va kuchli hamda kuchsiz elektrolitlar. Geterogen sistemalar. Eruvchanlik ko'paytmasi. Elektrolitik dissotsiyalanish. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar. Dissotsiyalanish darajasi. Dissotsiyalanish darajasini dissotsiyalanish konstantasi bilan bog'liqligi. Analitik reaksiyalarni olib borish sharoitlari. Geterogen sistemalarda muvozanat. Eruvchanlik ko'paytmasi.

Suvni ion ko'paytmasi, vodorod va gidroksid ko'rsatkichi. Bufer eritmalarini va ularning analizdagi ahamiyati. Bufer eritmalarining pH ni hisoblash

Suvning ion ko'paytmasi. Vodorod va gidroksid ko'rsatkich. Vodorod ko'rsatkich (pH) va uni kislotalarda hisoblash. Gidroksid ko'rsatkich (pOH) va uni ishqorlarda hisoblash. Bufer eritmalar. Bufer eritmalarining pH ini hisoblash. Bufer sig'imi.

#### **40-Mavzu I-II guruh kationlarining qisqacha tavsifi**

I va II guruh kationlarining umumiy tavsifi. Birin-ketin va sistematik analiz. I va II guruh kationlarini ajratish sharoitlari.

#### **41-Mavzu III-V guruh kationlarining umumiy tavsifi. Gidroliz va amfoterlik, ularning analizdagi ahamiyati**

III, IV, V guruh kationlarining umumiy tavsifi. I-V guruh kationlar aralashmasini analiz qilish tartibi. Tuzlar gidrolizi. Gidroliz konstantasi va uni gidroliz darajasi bilan bog'liqligi. Suyultirish qonuning gidrolizga ta'siri. Amfoterlik va uning analizda ahamiyati.

#### **42-Mavzu I-II-III-guruh anionlari sinflanishi va umumiy tavsifi. Quruq tuzni analiz qilish sxemasi. Elementlarni ajratish usullari**

I-II-III-guruh anionlari sinflanishi va umumiy tavsifi. Uch guruh anionlar aralashmasini analizi. Quruq tuzni analiz qilish sxemasi. Elementlarni ajratish usullari.

#### **43-Mavzu Kimyoviy muvozanat asoslari**

Kimyoviy muvozanat. Muvozanat konstantasi ifodasini massalar ta'siri qonuniga binoan keltirib chiqarish. Geterogen va gomogen sistemalar uchun muvozanat konstantasining ifodasi. Muvozanat konstantasining turli ifodalari va ular o'rtasidagi bog'lanish. Muvozanat konstantasining izotermasi, izoxora-izobara tenglamalari.

#### **44-Mavzu Miqdoriy analiz usulining sinflanishi va mohiyati. Xatolar turlari va ularni yo'qotish usullari. Xatolarni ifodalash usullari.**

Miqdoriy analiz. Miqdoriy analiz usullarining sinflanishi. Xatolar nazariyasi. Xatolarning sinflanishi va ularni yo'qotish yo'llari. Xatolarni ifodalash usullari. O'rtacha natijadan siljish.

**45-Mavzu Gravimetrik analiz asosi va usullari. Haydash, cho'kma hosil qilish va ajratish usullarining asosi.** Birgalikda cho'kish va uni yo'qotish usullari. Gravimetrik analizda hisoblashlar. Gravimetrik analiz asosi. Xaydash usuli. Gravimetriyada cho'ktirish usuli. Cho'kma holat. Tortma holat. Cho'kmalar hosil bo'lish sharoitlari. Birgalashib cho'kish. Okklyuziya va unga qarshi kurash.

**46-Mavzu Titrimetrik analiz asoslari va usullari.** Reaksiya turlari bo'yicha sinflanishi. Konsentratsiyalar turlari. Titrimetrik analizda hisoblashlar. Titrimetrik analiz asoslari. Titrlash usullari bo'yicha sinflanishi. Konsentratsiyani ifodalash turlari. Titrimetriyada hisoblashlar.

**47-Mavzu Neytrallash (kislota-asosli titrlash) usuli asoslari.** Indikatorlarni ion va xromofor nazariyasi. Neytrallash usuli egri chiziqlari. Indikator tanlash usuli. Usulning qo'llanilish sohalari. Neytrallash usulining asosi. Ishchi va aniqlovchi eritmalar.

Indikatorlarning ion nazariyasi. Indikatorlarning xromofor nazariyasi. Indikator tanlash usuli. Indikatorlarning rang o'zgarish sohalari.

**48-Mavzu Titrlash egri chiziqlari.** Oksidlanish-qaytarilish usullarida indikatorlar nazariyasi va indikatorlarni tanlash usullari. Kuchli kislotani kuchli asos bilan titrlash egri chizig'ini hisobi. Egri chiziq ko'rinishi va indikator tanlash. Kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlash egri chizig'i. Kuchli kislotani kuchsiz asos bilan titrlash egri chizig'i. Suvning qattiqligini aniqlash. Neytrallash usulini qo'llanishiga misollar. Redoksimetriyada indikatorlar nazariyasi.

